QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ZAMONAVIY O’ZBEK SHE’RIYATIDA GULCHEHRA NURULLAYEVA FENOMENI

https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.026

Mamuraliyeva Gulsanam Ilhomjon qizi
Namangan davlat universiteti Tarix yo’nalishi talabasi
Telefon: +998948675151
E-mail: mamuraliyevikromjon8@gmail.com
Ilmiy rahbar: ***Madraximov Zoxid Sharofovich****,*
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o’zbek she’riyatida o’zining o’chmas, betakror she’rlari bilan nom qoldirgan Gulchehra Nurullayevaning hayot yo’li, shoiralik faoliyati, she’rlarida ayol qalbiga xos kechinmalar, muhabbat va iztirob, jamiyat va shaxs munosabatlari badiiy ifoda topgani ko’rsatib beriladi.

Kalit so’zlar: She’riyat, adabiyot, “Nuroniy” jamg’armasi, Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva, Erkin Vohidov, lirika, “qora ro’yxat”, Usmon Haqnazar, Do’mbirobod, Yusuf Juma.

Аннотация: В данной статье представлен жизненный путь и поэтическая деятельность Гюльчехры Нуруллаевой, оставившей свой след в современной узбекской поэзии благодаря своим незабываемым, уникальным стихам, и показано, как её стихи выражают чувства, присущие женскому сердцу, любовь и страдание, а также взаимоотношения между обществом и личностью.

Ключевые слова: Поэзия, литература, Фонд «Нуроний», Зульфия, Халима Худойбердиева, Эркин Вохидов, лирика, «чёрный список», Усмон Хакназар, Домбирабад, Юсуф Джума.

Abstract: This article presents the life path and poetic activity of Gulchehra Nurullayeva, who left a name for herself in modern Uzbek poetry with her indelible, unique poems, and shows how her poems express the feelings inherent in the female heart, love and suffering, and the relationships between society and the individual.

Keywords: Poetry, literature, "Nuroniy" Foundation, Zulfiya, Halima Khudoyberdiyeva, Erkin Vohidov, lyrics, "black list", Usmon Haknazar, Dombirabad, Yusuf Juma.

KIRISH

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ayol shoiralar ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular she’riyat orqali inson qalbi, ayol ruhiyati, muhabbat va ma’naviy izlanishlarni badiiy ifodalab kelmoqdalar. Bu jarayonda Gulchehra Nurullayeva ijodi ham e’tiborga loyiq bo‘lib, shoira o‘z she’rlarida samimiylik, lirizm va hayotiylikni ustuvor tamoyil sifatida namoyon etadi. Adabiyotga oltimishinchi yillarning boshlarida kirib kelgan ijodkorlar haqida so’z borganda beixtiyor hayolimizda munis bir chexra chizilib, quloqlarimizda uning munis ovozi jaranglaydi. Bu – Gulchehraning siymosi, uning kuyinchak ovozi… Orziqish, intilish, dilkashlik, dardkashlik bilan yo’g’rilgan bu ohang har gal xuddi yurakka to’qinadi, unda aks sado uyg’otadi, hayolni talpintiradi, yiroqlarga boshlaydi, yuksaklarga yetaklaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O’zbek adabiyotining yorqin vakilasi Gulchehra Nurullayeva 1938-yilda Toshkent viloyatining Choshtepa qishlog‘ida tug‘ilgan. 1956 – 1964-yillarda Toshkent universitetining jurnalistika bo‘limida tahsil olgan, 1961 – 1967-yillarda “O‘zbekiston xotin-qizlari” (hozirgi “Saodat”) jurnalida ishlagan. 1967 – 1969-yillarda Moskvadagi ikki yillik oliy adabiyot kursida o‘qigan.

Shoira ijodi XX asr 60-yillaridan boshlangan bo‘lib, birinchi she’riy to‘plami “Quyosh tabassumi” (1965) nomi bilan chop etilgan. Shu kungacha o‘ndan ortiq to‘plamlari e’lon qilingan.

Gulchehra Nurullayevaning “Orzularim qoqadi qanot” (1969), “Tashnaman” (1972), “Ikkinchi bahor” (1973), “Lirika” (1975), “Bag‘ishlov” (1977), “Paxta hidi” (1981), “Nurli nuqtalar” (1986), “Muhabbatning suvrati” (1988) kitoblari chop etilgan [1].

Gulchehra Nurullayeva zamonaviy adabiy muhitda faol ijod qilayotgan shoiralardan biridir. Uning she’rlari respublika miqyosidagi adabiy nashrlarda e’lon qilinib, o‘quvchilar orasida ma’lum darajada e’tirof etilgan. Shoira ijodini o‘zbek ayol she’riyati an’analari bilan bog‘liq holda o‘rganish mumkin bo‘lib, bunda Zulfiya va Halima Xudoyberdiyeva ijodida shakllangan lirizm va ma’naviy teranlik an’analari davom ettirilgani kuzatiladi. Gulchehra Nurullayeva she’riyatida quyidagi mavzular yetakchi o‘rin tutadi: muhabbat va sadoqat, sog‘inch va hijron, ayol qalbining ichki kechinmalari, inson taqdiri va hayot mazmuni. Shoira she’rlarida muhabbat tuyg‘usi nafaqat shaxsiy his sifatida, balki insonni ruhiy poklanishga yetaklovchi kuch sifatida talqin etiladi. Bu holat zamonaviy o‘zbek she’riyatiga xos umumiy tendensiyalar bilan hamohangdir.

Shoiraning badiiy uslubi sodda va ravon tili bilan ajralib turadi. U murakkab poetik konstruksiyalardan ko‘ra, oddiy va xalqona so‘zlar yordamida chuqur ma’no ifodalashga intiladi. Bunday uslub o‘quvchiga tez ta’sir etish, she’r mazmunini oson qabul qilish imkonini beradi.

Adabiyotshunoslar ta’kidlaganidek, zamonaviy she’riyatda lirizm va samimiylik muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Gulchehra Nurullayeva ijodida ham aynan shu jihatlar yetakchi bo‘lib, uning she’rlari hissiy ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. O‘zbek adabiyotida ayol shoiralar

ijodi alohida poetik maktab sifatida shakllangan. Zulfiya va Halima Xudoyberdiyeva ijodida ayol qalbi, ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviyat masalalari yuksak badiiy darajada yoritilgan. Gulchehra Nurullayeva ana shu an’anani davom ettirgan holda, zamonaviy ayolning ruhiy holati va ichki iztiroblarini o‘ziga xos poetik ohangda ifodalaydi [2].

NATIJALAR

Shoira Gulchehra Nurullayeva mustaqillik uchun kurashgan ijodkor sifatida tanilgan, uning she’rlari hukumatning “qora ro’yxatiga” tushgan. Shoira hukumat o’zini xalq uchun, lekin haqiqatda o’zi uchun ishlashi bilan rozilik topsa bo’lmaydigan holga ega ekan. U 1980-yillarda “Kommunistik partiya” safidan chiqqan, xalq harakatlari a’zosi sifatida foydalanish uchun o’z hayotini xarajat qilgan.

Shoira o‘zining tanqidiy fikrlari uchun 1990-yillarda ma'lum muddat ta'qibga uchragan, Yozuvchilar uyushmasi a'zoligidan chetlatilgan.

Gulchehra Nurullayeva O‘zbekistonning hozirgi prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshqaruvi davrida “oqlanadi” va 2018-yilda Yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga ham tiklanadi, 2019-yil 9-may kuni O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi tomonidan I darajali “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni (oltin medali) bilan taqdirlanadi [5].

“Men uning she'rlarini hamma vaqt o‘qib, kuzatib boraman, – deb yozgan edi Saida Zunnunova. – Shoira hissiyotidagi nafislik, teranlik, ayol qalbiga xos mayinlik hamma vaqt meni xursand qiladi. Gulchehra she'rlari ustida qunt bilan ishlaydi. Bu uning satrlarining pishiqligidan, yangi, chiroyli obrazlar topa bilishidan ko‘rinib turadi”.

2021-yilning 15-yanvar kuni taniqli shoira Gulchehra Nurullayeva 83 yoshida olamdan o‘tdi. Gulchehra Nurullayeva 16-yanvar kuni Toshkentdagi Do‘mbirobod qabristoniga dafn etilgan[4].

Marhum shoira Gulchehra Nurilloh qizining tanlangan she’rlaridan iborat uch tomlik she’riy to‘plami nashr etildi.

“Yurak bilan suhbat” nomli birinchi jildga bir paytlar kitoblariga kiritilgan she’rlar saralab olingan. “Martabasi baland quyoshning” nomli ikkinchi jildidan shoiraning 1987-yildan 2003-yilgacha yozilgan satrlari joy olgan. “Haqqa haqiqatga” nomli uchinchi jild esa shoira ijodining 2004-yildan – 2020 yilgacha bo‘lgan davrini qamrab olgan.

MUHOKAMA

Ijtimoiy tarmoqlarda ijodkorlar va muxlislar shoira hamda uning mazkur to‘plami to‘g‘risidagi iliq fikrlarini bildirib o‘tgan.

“Bugun O‘zbekiston butunlay boshqacha qiyofada bo‘lishi mumkin edi, yangi tariximiz ham boshqacha kechgan bo‘lardi, magaram peshonamizga Gulchehra Nurillohlardan biron o‘nta bitgan bo‘lganda. Ijodkor va Shaxs o‘z g‘oyalari yo‘lida hech nimaga chalg‘imasligi kam kuzatiladi. Odatda diqqat hammaslaklaring, yo‘ldosh ulug‘ shaxslar, manfaatlar uzra sochilib ketadi. Bosh maslakdan uzoqlashasan yoki ayro tushasan. Yaqin tariximizda bunga misollar juda ko‘p. Ammo Gulchehra opa hammadan voz kechib bo‘lsa ham, yakka o‘zi hammaga qarshi

borib bo‘lsa ham oliy Maqsadi, bosh G‘oyasidan chalg‘imagan Shaxs o‘laroq gavdalandi ko‘z o‘ngimda. To‘plamlarini nashr etishga biroz hissam qo‘shilib qolganidan g‘oyat mamnunman”, deydi to‘plamlar nashr etilgan “Akademnashr” nashriyoti rahbari Sanjar Nazar.

“Sevimli Erkin Vohidovning “Gul yonib, gulgun yonib, gulshan aro Gulchehralar” deb boshlanuvchi mashhur g‘azalidagi Gulchehralardan biri mana shu jo‘mard ayol edi. O‘smirligimda “Saodat” jurnalini Halima opam rahbar yillaridagi sonida “Men ona bo‘larman jo‘mard zotiga” sarlavhali bir turkum she’rlarini o‘qigandim. Mahliyo bo‘lgandim.

Vaqtlar o‘tib, shoiraning o‘zi va Vatani taqdiri bilan bog‘liq iztirobli, lekin ulug‘vor bir qat’iyat ruhidagi she’rlarini o‘qidik. Uzoq yillar xalqidan ayro qilingan shoiramiz ijodi bilan to‘liq tanishish imkoni bor endi. Bu kitobdagi ayrim she’rlarni o‘qib, odamzotga, ayniqsa, ulkan iste’dodlarga zulm qilish hech qachon yo‘lboshchilarga zeb bo‘lmasligini angladim”, deydi shoira Guljamol Asqarova.

“Yangi yil arafasida taomu dasturxonni o‘ylamay, she’r o‘qib o‘tirish ham bir baxt. Ayniqsa bu Gulchehra Nurillayevaning she’rlari bo‘lsa... Shoiraning so‘nggi kitobi 1988-yili chop etilgan ekan. Men 13 yosh bo‘lgan ekanman... Dahshat! Asarlari hali-beri kun ko‘rmasligini bilib turib ham shoira yozavergan, ijodini to‘xtatmagan. Xalqimizning shunday qizlari bor!” deydi jurnalist Nazokat Azim.

“Kecha Gulchehra Nurullayevaning uch jildlik kitoblari chop etilganidan xabar topgan edim. Bugunoq ularni sotib oldik. Opaning shaxsiyati, ijodi bilan qisman tanish edim. Yutoqib o‘qishni boshladim. Men opani xayolimda doim Anna Axmatovaga o‘xshatib kelganman. She’riyatidagi jo‘shqinlik, shaxsiyatidagi jasorat tufaylidir balkim. Ayniqsa, kitoblarning ikkinchi va uchinchi jildiga shoiraning 32 yil mobaynida deyarli chop etilmagan she’rlari jamlangani, o‘ylaymanki, barcha muxlislariga opadan hassos badiiy xotira bo‘lsa ajab emas”, deya fikrlarini bildirgan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi Alisher Shoyimov [5].

Yuqoridagi jurnalist va yozuvchilar tomonidan shoira she’rlari va ijodiga berilgan ta’rif ham Gulchehraning umr guli naqadar go’zal bo’lganligidan dalolat beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Gulchehra Nurullayeva ijodi zamonaviy o‘zbek ayol she’riyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning she’rlari lirizmga boyligi, samimiyligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Shoira ijodini o‘rganish zamonaviy adabiy jarayonni, xususan, ayol she’riyati rivojini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Sharq yulduzi”, “Saodat”, “Yoshlik” jurnallaridagi zamonaviy she’riyatga oid maqolalar.
2. Gulchehra Nurullayeva (1938) https://share.google/sPQP2VaX54pt6Gdp3
3. Taniqli shoira Gulchehra Nurullayeva vafot etdi https://share.google/oVqsYjiO53q75Qnn7

4. Gulchehra Nurullayevaning mustaqillik yillaridagi ilk she’riy to‘plami nashr etildi https://share.google/kLLhY2kERyBa43qOJ

5. Gulchehra Nurullayeva: Xalq dardi bilan yashayotgan shoira https://share.google/IGrOS6lo8bUDtVnDn